



## A X B O R O T X A T I

Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2016 yil 1 dekabridagi 87-03-3314 -sonli modernnomasiga binoan, Samarqand davlat arxitektura-qurilish institutida 2016 yil 24 dekabr kuni institutni tashkil etilganligini 50 yilligiga bag'ishlangan "*O'zbekistonda arxitektura-qurilish sohalarini rivojlantirishning dolzarb muammolari va istiqbollari*" mavzusida vazirlik miqyosidagi ilmiy-texnik konferensiya o'tkaziladi.

### Konferensiya quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ish olib boradi:

- arxitektura, dizayn, shaharsozlik, landshaft sohasida mamlakatimiz va xorij tajribalari: amaliyot, nazariya va istiqbollar;
- bino-inshootlarni loyihalash va ekspluatasiya qilish jarayonida zamonaviy qurilish materiallari, konstruksiyalari, texnika va texnologiyalarini amaliyotga tadbiq qilishning ustuvor yo'nalishlari;
- energiya samarador va tejamkor binolarni loyihalash;
- muhandislik kommunikasiyalari qurilishini modernizasiyalashning dolzarb muammolari;
- geodeziya, kartografiya va kadastr sohalarini rivojlantirishning dolzarb muammolari va yechimlari. Kosmik suratlardan xalq xo'jaligida foydalanish;
- mamlakatni modernizasiyalash sharoitida qurilish iqtisodiyoti va menejmentining dolzarb muammolari;
- arxitektura va qurilish tizimlari uchun mutaxassislar tayyorlash hamda soha xodimlarining malakasini oshirish.

### Konferensianing rasmiy tillari: o'zbek, rus va ingliz tillari

Konferensiyada ishtirok etish uchun mualliflar o'z maqolalarini quyida keltirilgan talablar asosida bir nusxada qog'oz va elektron ko'rinishida yoki elektron pochta orqali 2016 yil 15 dekabrgacha puxta tahrirlangan holatda quyida keltirilgan manzilga topshirishlari yoki jo'natishlari mumkin. Muddatidan kechiktirib topshirilgan yoki talablarga javob bermaydigan maqolalar qabul qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

### Maqolalarni rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar:

- Matn Microsoft Word formatida, A 4 formatda, kitob ko'rinishida;
- har tomondan 2 sm hoshiya qoldiriladi;
- shrift - Times New Roman;
- o'lchami -14 pt;
- abzas - 1 sm, oraliq – 1,5;
- tekislash - eni bo'yicha;
- rasm va grafiklar (300 dpi) \*.tif, \*.psd va \*.jpg formatlarida;
- sarlavhada ma'ruzaning nomi, ma'ruzachining f.i.sh., OTM yoki tashkilot nomlari sahifaning o'rtasida joylashtiriladi;
- adabiyotlarga murojat(ssylka) katta qavs ichida ko'rsatiladi.

Ishtirok etuvchilar har bir sahifa uchun 10000 so'm miqdorida tashkiliy badal mablag'ini to'lashlari zarur.

**Hisob raqami:** Moliya vazirligi g'aznachiligi, h/r 23402000300100001010 Markaziy bank  
KKM Toshkent, MFO 00014, INN 201122919, shxv 400110860184017950100079004 INN  
201213353.

## ISHTIROKCHINI RO'YXATGA OLİSH SHAKLI

Ishtirokchining to'liq f.i.sh.	
Tashkilot (nomi)	
Seksiya (nomi)	
Lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni	
Manzil	
Telefon	
Faks	
E-mail	
Ma'ruzaning qischtqacha mazmuni	
Ishtirok shakli (ma'ruza/ko'rgazma)	
Mehmonxonaga extiyoji (kerak/kerak emas)	

### **Murojaat uchun tashkiliy qo'mita:**

140147, Samarqand sh. Lolazor ko'cha 70. SamDAQI. Tel: (0-366) 237-18-47,  
Faks: (0-366) 237-26-30, E-mail: [samgasikonf-2016@umail.uz](mailto:samgasikonf-2016@umail.uz)  
Xushvaqtov Usmon Ashurovich

### **ILMIY MAQOLALAR QUYIDAGI TARTIBGA EGA BO'LISHI ShART:**

- annotasiya
- kirish qismi (kirish)
- asosiy qism (tadqiqot usuli, asosiy natijalar, ularning talqini, maqolalar, patentlar, ilmiy hisobotlar, internet materiallari, konferensiya materiallari, dissertasiyalar tahlili va murojat "ssylka")
- xulosalar
- foydalanigan adabiyotlar ro'yxati (adabiyotlar).

Maqoladan alohida yoki uning bosh qismida maqola annotasiyasi keltiriladi. Annotasiyada muallif ishning e'tiborga molik tomoni, yangilikni, ishning qiymati va ahamiyati, uni ishlatalish yo'llari to'g'risida aniq ma'lumot berishi kerak.

Kirish qismida mavzuga yaqin e'lon qilingan ishlar to'g'risida obzor beradi (maqolalar, patentlar, ilmiy hisobotlar, internet materiallari, konferensiya materiallari, dissertasiyalar va sh.k.) bu obzorda muallif ungacha bajarilgan ishlarni tahlil qilish va o'z fikrlarini bildirishi kerak.

Xulosalarda qanday natijalar olinganligi to'g'risida gapirilsa, annotasiyada nima bajarilganligi to'g'risida aytildi. Xulosalar juda keng va katta hajmda bo'lmasligi kerak. Eng asosiysi ishda olingan yangi natijalar to'g'risida aniq ma'lumotlar xulosada o'z aksini topishi lozim.

Adabiyotlar ro'yxatini O'zR VM huzuridagi OAK tomonidan qo'yilgan maxsus talablar asosida tuziladi